



Cultural peculiarities in Charles Dickens's "Hard Times"

Gulkhayo ORTIKOVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5

October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

cultural identity,
industrialization,
satire,
class stratification,
image,
linguocultural.

ABSTRACT

This extended annotation provides an academic overview of the article devoted to the cultural analysis of Charles Dickens's novel *Hard Times*. The study examines the complex cultural transformations of nineteenth-century English society as reflected in the novel's narrative, characters, and social environment. It first addresses the impact of industrialization on cultural life, analyzing the fictional model of Coketown as a representation of environmental degradation, aesthetic uniformity, and the mechanization of human existence. The article further investigates the consequences of utilitarian pedagogy exemplified by Thomas Gradgrind. By suppressing imagination, emotional development, and artistic perception, such an educational model narrows the cultural worldview of individuals and society. The contrast between Sissy Jupe's intuitive, artistic sensibility and the rigid factualism of the Gradgrind system highlights the central tension between humanistic and utilitarian values.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp137-142>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Charlz Dikpensning "Mushkul zamonlar" asaridagi madaniy o'ziga xosliklar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

madaniy o'ziga xoslik,
sanoatlashish,
satira,
sinfiy tabaqalanish,
obraz,
lingvomadaniy.

Ushbu maqola Charlz Dikpensning "Mushkul zamonlar" romanida tasvirlangan madaniy jarayonlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, asardagi badiiy obrazlar, voqelik va ijtimoiy sharoitlar orqali XIX asr ingliz jamiyati madaniy hayotining murakkab qatlamlari o'rganiladi. Tadqiqotda avvalo industrial davrning madaniy muhitga ta'siri ko'rib chiqiladi. Koultun shahrining badiiy modeli orqali

¹ Doctoral Student, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: gulhayoortiqova@gmail.com

sanoatlashuv jarayonining ekologik, estetik va ijtimoiy oqibatlari aniqlanadi. Ushbu makonda shaxsning mexaniklashuvi, atrof-muhitning buzilishi va madaniy xilma-xillikning qisqarishi romanning markaziy g'oyaviy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Maqolada shuningdek, utilitar ta'lim tizimining madaniy oqibatlari tahlil qilinadi. Tomas Gradgrind obrazi orqali faktlarga asoslangan bilim konsepsiyasining tasavvur, san'at va hissiy tajribani cheklab qo'yishi ko'rsatiladi. Bu jarayon, bir tomondan, bolalikning tabiiy rivojlanish bosqichini buzsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning madaniy fikrlash doirasini toraytiradi. Sissy Jupe obrazining tahlili badiiy-intuitiv idrokning jamiyat uchun zarurligini ochib beradi.

Культурные особенности в произведении Чарльза Диккенса «Тяжелые времена»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

культурная идентичность,
индустриализация,
сатира,
классовая стратификация,
образ,
лингвокультурный.

Настоящая научная статья посвящена анализу содержания и сущности культурных процессов, описанных в романе Чарльза Диккенса «Тяжелые времена». Через художественные образы, реальную действительность и социальные условия произведения исследуются сложные пласты культурной жизни английского общества XIX века. В исследовании, прежде всего, рассматривается влияние индустриальной эпохи на культурную среду. Экологические, эстетические и социальные последствия процесса индустриализации определяются через художественную модель города Коултаун. В этой обстановке механизация человека, разрушение окружающей среды и сокращение культурного разнообразия составляют одно из центральных идейных направлений романа. В статье также анализируются культурные последствия утилитарной системы образования. Через образ Томаса Грэдграйда показано, что концепция знания, основанного на фактах, ограничивает воображение, искусство и эмоциональный опыт. Этот процесс, с одной стороны, нарушает естественный этап развития ребенка, а с другой – сужает рамки культурного мышления общества. Анализ образа Сисси Юп выявляет необходимость художественно-интуитивного восприятия для общества.

KIRISH

XIX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandasi Charlz Dikpens "Mushkul zamonlar" romanida industrial jamiyatning shakllanish jarayoni va uning madaniy oqibatlari o'tkir ijtimoiy realizm orqali ochib bergan. Asarda sanoatlashuv, utilitarizm, sinfiy tabaqalanish va ma'naviy inqiroz kabi jarayonlar badiiy talqin etilgan bo'lib, ular o'z davrining madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz berganidan darak beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – roman matnida aks etgan madaniy o'ziga xosliklarni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish,

ular qanday badiiy vositalar orqali ifoda etilganini aniqlash va XIX asr ingliz jamiyati madaniy kontekstida sharhlashdan iborat. Asarda sanoatlashuvning shaxsiy ong, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy qadriyatlar tizimiga ko'rsatgan ta'siri bevosita ijtimoiy realizm tamoyillari asosida ochib berilgan. Ushbu maqola romanda ko'tarilgan madaniy xususiyatlar va ularning badiiy ifodasini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Dikkins yaratgan Qurumkent obrazi industrial davrning madaniy holatini aks ettiruvchi badiiy model bo'lib xizmat qiladi. Shahar muhitining o'ziga xosligi, bir tomondan, iqtisodiy taraqqiyot bilan belgilanar ekan, ikkinchi tomondan, madaniy hayotning torayishi va bir tekislikka tushib qolishini ko'rsatadi.

METODLAR

Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi: Matn tahlili roman matni strukturaviy, mazmuniy va badiiy qatlamlar kesimida tahlil qilindi. Madaniy-tarixiy metod – asardagi obraz va voqealar Viktoriya davri madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlari bilan qiyosiy o'rganildi. Komparativ yondashuv – industrial madaniyat, utilitarizm va sinfiy tizimga oid nazariy qarashlar bilan roman tasviri solishtirildi. Gender tahlili asardagi ayol obrazlari o'sha davr gender stereotiplari nuqtayi nazaridan baholandi. Mazkur metodlar romandagi madaniy o'ziga xosliklarni kompleks tarzda anglash imkonini berdi.

NATIJALAR

Charlz Dikkinsning “Mushkul zamonlar” asari Viktoriya jamiyatining lingvomadaniy jihatlarini sinfiy bo'linishlar, ta'lim falsafalari, sanoat madaniyatini tasvirlash orqali, shuningdek, o'sha davrning ijtimoiy va madaniy kuchlarini aks ettirish orqali ochib beradi. Dikkins ijtimoiy sinflar o'rtasidagi tafovutni ularning nutq uslublari orqali ifodalaydi, yuqori tabaqaning “oliy madaniyati”ni ishchilar sinfining ommaviy madaniyati va dialektiga qarama-qarshi qo'yadi. Ushbu asarda sanoatlashtirishning zulmkor va g'ayriinsoniy oqibatlarini va janob Gradgrind kabi qahramonlar tomonidan ifodalangan qat'iy, “faktlarga asoslangan” ta'lim tizimini tanqid qilish uchun o'xshatish va istehzo qo'llaniladi.

Dikkinsning romanlari nafaqat qiziqarli syujetga ega, balki ular satira bilan to'la [6]. U ko'pincha satirist va Viktoriya jamiyatining tanqidchisi sifatida qaraladi. Muallif asarlari orqali Viktoriya davridagi hukumat tashkilotlarining barcha kamchiliklarini ko'rsatadi. Dikkinsning satirasi butun Angliya katta ta'sir qiladi [4]. Yozuvchi asarlaridagi turli adabiy vositalar orqali maktablar, oilalar bo'yicha siyosat, parlament va cherkovni tanqid ostiga oladi.

Dikkins tomonidan qo'llanilgan Viktoriya davri xalqining iboralari o'quvchiga alohida ta'sir ko'rsatadi [2]. Bunday idiomatik iboralardan foydalanish Viktoriya madaniyati va an'analarini o'quvchiga tanishtirish usuli sifatida qaraladi. Shuning uchun Dikkinsning tili nafaqat kommunikativ vosita, balki u jamiyatining madaniy merosini ham o'z ichiga oladi. Uning barcha romanlari dunyoni anglashning o'ziga xos usulining so'zlardagi timsolidir [3]. Yozuvchi asarlarining keng tarqalgan stilistik xususiyatlari, takrorlanuvchi so'zlari va tasvirlari hamda ohangi takrorlanmas, o'ziga xosdir. Uning uslubi – bu dunyoda yashashning o'ziga xos usuli bo'lib, unga og'zaki shakl beriladi. Dikkinsning “Pickwick Papers”, “Oliver Twist”, “Martin Chuzzlewit”, “Bleak House”, “Hard Times”, “Buyuk umidlar” va “Our Mutual Friend” kabi romanlari uning ijodiy qarashlarini ifodalaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Qurumkent shahrining tasviri sanoatlashuvning ekologik, estetik va ijtimoiy sohadagi izlari bilan to'yingan. Shahar muhitining bir xil qolipga solinishi, ekologik ifloslanish va mehnatning mexaniklashuvi industrial madaniyatning asosiy belgilaridir. Roman qahramonlaridan biri – Tomas Gradgrind – XIX asr pedagogik qarashlarida mavjud bo'lgan utilitarizmning badiiy namunasi sifatida ko'rinadi. U qo'llaydigan ta'lim tamoyillarida tasavvur va badiiy tafakkurga o'rin yo'q. Gradgrindning faktlarga asoslangan ta'lim tizimi tasavvur, san'at va emotsional rivojlanishni cheklaydi. Bu hol shaxsning madaniy shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Fakt va hisob-kitoblarga tayanish madaniy tafakkurning ko'p qirraliligini inkor etadi. Bunday yondashuv insoniyatning ijodiy salohiyatini cheklaydi. Sissy Jupe obrazi utilitar ta'limga qaramasdan, tasavvur va emotsional sezgirlikning jamiyat uchun zarurligini namoyish etadi. Uning badiiy his-tuyg'ulari Gradgrind tizimiga qarshi qo'yiladi.

Ishchilar va zodagonlar sinfi o'rtasidagi madaniy tafovutlar til madaniyati, yashash sharoitlari, bo'sh vaqtni tashkil etish va qadriyatlardagi farqlar orqali namoyon bo'ldi. Roman sinfiy tengsizlikning madaniy ildizlarini ko'rsatib beradi. Ishchilarning "mexanizmning detallari" sifatida tasvirlanishi industrial madaniyatning shaxsga nisbatan yondashuvdagi begonalashuv jarayonini ifodalaydi. "Mushkul zamonlar"da ijtimoiy tabaqalanish nafaqat iqtisodiy tafovut sifatida, balki madaniy ko'rinishlarda ham aks ettiriladi. Zodagonlar nutqi rasmiy va sun'iy bo'lsa, ishchilar muloqoti sodda va samimiyatga asoslangan. Bu lingvistik farq sinfiy madaniyatning tub ildizlarini aks ettiradi.

Louiza Gradgrind va Rachell obrazlari orqali ayollarga nisbatan Viktoriya davrida mavjud bo'lgan cheklovlar, hissiy bosim va ijtimoiy mavqe pastligi namoyon bo'ladi. Ayolning ma'naviy barqarorlikni saqlovchi kuch sifatidagi o'rni ham roman orqali tasdiqlandi. Dikkins asarida ayollar mavqe'i Viktoriya davri gender munosabatlari nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Louiza Gradgrindning his-tuyg'uga to'la bo'lgan tabiiy rivoji faktlarga asoslangan tarbiya bilan cheklanadi. Bu gender madaniyatining ayol shaxsiyatiga bosimini ochib beradi. Louizaning Bounderbyga turmushga chiqishi o'sha davrda ayollarning ijtimoiy mavqe'i iqtisodiy tizimdan mustaqil emasligini ko'rsatadi. Rachell obrazi jamiyatdagi axloqiy poklik, sabr-toqat va bag'rikenglik ramzi sifatida ko'riladi. Bu ayol obrazini jamiyatning ma'naviy asoslari bilan bog'laydi.

Industrial jamiyatda axloqiy mezonlar zaiflashgani, oilaviy munosabatlarning formal tus olgani va ruhiy qadriyatlarning chetga surilgani romanning asosiy xulosalaridan biri sifatida qayd etildi. Ishchilar qatlamining bo'sh vaqtga ega emasligi ularning madaniy hayotdan chetda qolishiga sabab bo'ladi. Bu madaniy tengsizlikning kuchayishiga xizmat qiladi. Uy-joyning tashqi ko'rinishi va holati jamiyatning ma'naviy-madaniy me'yorlarini yaqqol ko'rsatadi. Ishchilar yashaydigan muhitning og'irligi ularning ijtimoiy mavqe'i bilan bevosita bog'liq.

MUHOKAMA

Olingan natijalar "Mushkul zamonlar" romanida Dikkins industrial jamiyatning madaniy inqirozga olib keluvchi mexanizmlarini badiiy tahlil qiladi. Roman faqat iqtisodiy jarayonlarni emas, balki ularning inson ongiga, ijtimoiy aloqalarga va madaniy qadriyatlarga ta'sirini ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Sanoatlashuvning jamiyatga kirib kelishi nafaqat ishlab chiqarishni o'zgartirgan, balki shahar estetikasini buzgan, oila va tarbiya tizimining mohiyatini o'zgartirgan [7]. Gender tahlili natijalari shuni tasdiqlaydiki, Viktoriya davri madaniyati ayollarni iqtisodiy va hissiy jihatdan cheklashga moyil bo'lgan. Sinfiy tafovutning kuchayishi esa jamiyatdagi madaniy tengsizlikni yanada chuqurlashtirgan. Boylikni insoniylikdan ustun qo'ygan obrazlar, xususan, Bounderby kapitalistik madaniyatning mohiyatini ochadi.

Dikkinsning “Mushkul zamonlar” asari Viktoriya davridagi ijtimoiy holatni yorqin namoyon eta olgan asar hisoblanadi. Roman ko'pincha ijtimoiy mavzular jihatidan ko'rib chiqiladi, uning lingvistik va badiiy jihatlarini e'tibordan chetda qoladi [5]. Romandagi “Ekish”, “O'rish” va “Yig'ish” kichik sarlavhalari Viktoriya davri o'quvchisiga Muqaddas Kitob Injildagi “Nima eksangiz, shuni o'rasiz” so'zlarini eslatdi. Bu so'zlar bolalar tarbiyasiga ishora qiladi, ya'ni “Ekish” bolalarga qanday tarbiya berilishini bildirsa, “O'rish” esa o'sha tarbiyaning natijasini ifodalaydi. Ushbu asarda Dikkins Viktoriya davri tashkilotlari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni fosh qilishga harakat qiladi. Stilistik jihatdan ushbu roman Dikkins ijodining muhim xususiyatlariga oid ko'plab misollarga to'la. Bu xususiyatlarning ba'zilar o'xshatish, satira, yumor, tasviriy ifoda va takrorlarda namoyon bo'ladi.

O'xshatish metaforaning eng aniq shakli bo'lib, turli xil nutq figuralarini ifodalovchi atama hisoblanadi. “Coketown”ning tavsifiga murojaat qilib, Dikkins taqqoslashni ikkita elementning umumiy xususiyati asosida amalga oshiradi: “bu vahshiyning bo'yalgan yuziga o'xshash g'ayritabiiy qizil va qora shahar edi” [1]. Birinchi element “Coketown” shahri, ikkinchisi “vahshiyning yuzi” va umumiy o'xshashlik “qorong'ulik” bo'lishi mumkin. Ikkala element ham bir xil rangga ega. Dikkins bu shahardagi og'ir vaziyat va qiyin sharoitlarini tasvirlash uchun ushbu lingvistik vositadan (o'xshatish) foydalanadi. U o'quvchiga ushbu sanoat shahri haqida to'liq tasavvur berishga harakat qiladi.

Dikkins o'z qahramonlarining tashqi ko'rinishini tasvirlash uchun karikaturadan foydalanadi [8]. Shu maqsadda u romanda tasvirlagan odamlar haqida ko'proq tafsilotlarni berish uchun o'xshatishlarni kiritadi. Asar qahramonlaridan Bitzerni tasvirlashda qo'llagan o'xshatishi bunga misol bo'la oladi:

“Bitzer, after rapidly blinking at Thomas Gradgrind with both eyes at once, and so catching the light upon his quivering ends of lashes that they looked like the antennae of busy insects, put his knuckles to his freckled forehead, and sat down again” [1].

Ushbu jumalarda muallif Bitzer o'qituvchiga javob berayotganida uning kipriklarini hasharotning antenna kabi mo'ylovlariga o'shatadi. Chunki, u doim hamma narsadan xabardor va o'qituvchiga robot kabi yodlangan ma'lumotlarni aytib berishga tayyor. Bitzer oddiy inson emas; u mexanik jamiyatining mahsulidir. Yuqoridagi parchada Dikkins Bitzerning kipriklarini hasharotning antennalari sifatida ta'riflaydi. Muallif quyidagi gapda kinoyadan foydalanib “Coketown” shahrining achchiq haqiqatini tasvirlaydi:

“It was a town of machinery and tall chimneys, out of which interminable serpents of smoke trailed themselves for ever and ever, [...]” [1].

XULOSA

Tadqiqot natijalari Charlz Dikkinsning “Mushkul zamonlar” romani industrial davr madaniyatining murakkab va ko'p qatlamli talqinini o'zida mujassam etganini ko'rsatadi. Asarda industrial madaniyatning shaxs va jamiyatga ta'siri, utilitar ta'limning salbiy oqibatlari, sinfiy bo'linishning madaniy mazmuni, gender tengsizligining ijtimoiy manbalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi keng qamrovda yoritilgan. Maqola Dikkins asarining madaniy mohiyatini ilmiy asosda tushunishga, industrial realizmni chuqurroq anglashga va Viktoriya davri jamiyatining madaniy jarayonlarini o'rganishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dickens, Charles. *Hard Times*. Bradbury & Evans, 1854.
2. Eagleton, T. *The English Novel*. Blackwell Publishing, 2005.
3. Flint, K. *Victorian Literature and Culture*. Cambridge University Press, 2012.
4. Williams, R. *Culture and Society: 1780–1950*. Chatto & Windus, 1958.
5. Humphreys, A. "Industrial Culture in *Hard Times*." Cambridge University Press, 2001.
6. Bloom, H. *Charles Dickens's Hard Times*. Chelsea House, 2003.
7. Hobsbawm, E. *Industry and Empire*. Penguin Books, 1999.
8. Storey, J. *Cultural Theory and Popular Culture*. Routledge, 2000.